

“Kelajak soati” darsining 5-8 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

6-mavzu: “Gadgetlarning hayotimizdagi o‘rni, ulardan foydalanish madaniyati”.

Annotatsiya: Ushbu mashg‘ulot 5–8-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning zamonaviy raqamli vositalar – gadgetlar (telefon, planshet, noutbuk) va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarga: Gadgetlar va ijtimoiy tarmoqlarning foydali jihatlari (o‘qish, muloqot, ijod, bilim olish vositasi sifatida), salbiy ta’sirlari (qaramlik, e’tiborning pasayishi, sog‘liq muammolari, kiberxavf, soxta do‘stlik va feyk axborotlar) haqida tushunchalar beriladi.

Dars maqsadi: O‘quvchilarga raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda mas’uliyat, me’yor va axborot madaniyatini tushuntirish, ularni soxta ma’lumotlardan himoyalash va vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga o‘rgatish.

Umumiy maqsad:

O‘quvchilarda raqamli qurilmalar (gadgetlar), internet, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona, xavfsiz va maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga foydali hamda salbiy ta’sirlarini o‘rgatish.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda gadgetlar haqida umumiy tushuncha hosil qilish:
2. Gadgetlardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishni o‘rgatish:
3. Texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish:
4. Gadgetlardan foydalanishda ijobiy va salbiy tomonlarini farqlashga yordam berish.

🧠 Asosiy g‘oyalar: O‘quvchi gadgetlardan foydalanish tartibini tushunadi. Real muloqotni qadrlashini anglaydi. Gadgetlardan me’yoridan ortiqcha foydalanish sog‘liq uchun qanchalik zararli ekanligini bilib oladi. O‘quvchi internetda hurmat bilan gaplashishni, shaxsiy ma’lumotlarni saqlashni va soxta xabarlariga ishonmaslikni o‘rganadi.

📖 *“Aqlli bola – gadgetni ham aql bilan ishlatadi!”, “Raqamli dunyoda xavfsiz bo‘lish – sening biliming va huquqing!”*

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchalar darajasida:

- O'quvchi "gadget" tushunchasining asl ma'nosini tushunadi.
- Gadgetlarning foydali va zararli tomonlarini tahlil qilishni o'rganadi, misollar bilan asoslab bera oladi.
- Texnologiyalardan to'g'ri foydalanish haqida bilim hosil qiladi
- Zamonaviy texnologiyalarning inson hayotiga ta'siri haqida o'z fikrini shakllantiradi.
- Berilgan muammoni (masalan, "Gadgetga qaramlik") tahlil qilish va unga yechim taklif qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Gadgetlardan foydalanishda mas'uliyatli va ongli munosabat shakllantiradi.
- Sog'liq va vaqt qadriyatini chuqurroq anglaydi.
- Jonli muloqot, do'stlik, oilaviy munosabatlar kabi qadriyatlarning muhimligini anglaydi.
- Raqamli odob va hurmat hissi shakllanadi.
- Texnologiyadan foyda olish istagi, ammo unga qaram bo'lmaslik hissi kuchayadi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- Gadgetlardan to'g'ri va xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini egallaydi.
- Gadget yordamida ta'limiy yoki foydali dasturlardan foydalanishni o'rganadi.
- Guruhda ishlash va fikr almashishda texnologiyadan foydalanish tajribasini orttiradi.
- Gadgetsiz vaqt o'tkazishning foydali usullarini bilib oladi (o'yinlar, kitob o'qish, do'stlar bilan muloqot).

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Jamoadagi muloqot va hamkorlik madaniyati shakllanadi.
- Raqamli axloq va mas'uliyat tuyg'usi kuchayadi.
- Oilada, maktabda va jamoada gadgetdan foydalanish madaniyatini tushunadi.
- O'zining raqamli odatlari bo'yicha muhokama yuritish va o'zini tahlil qilishga intiladi.

- Sogʻlom turmush tarzini qadrlash va boshqa bolalar bilan jonli muloqotni afzal koʻrish ehtiyoji yuzaga keladi.

 **Metapredmet:** bu taʼlimda oʻquvchilarga raqamli xavfsizlik, parol yaratish va shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish haqida tushuncha berish bilan birgalikda, **hayotiy vaziyatlar va vaqtni toʻgʻri tashkil qilish koʻnikmalarini** shakllantirishga, gadgetdan foydalanishda odob-axloq qoidalariga amal qilishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “Gadgetlar” darsida:

- Raqamli xavfsizlik, parol yaratish va shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish haqida tushuncha beriladi (AKT).
- Muhokama va debatlar tashkil qilish: “Gadgetlar – hayotimizdagi doʻst yoki dushman?” mavzusida fikr almashadi (muloqot).
- Gadgetlar orqali tabiat, jamiyat, sogʻliqqa taʼsir haqida mulohaza yuritadi (tarbiya va atrof-muhit) — bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir.**

 **Dars hamkori:** Oquvchilarni kasb hunarga yonaltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. info-tashxis.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashgʻulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parcha, guruhviy muhokamalar va qoʻshimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar toʻplami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – oʻquvchilarga gadgetlar haqida tushuncha beriladi. Oʻquvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratiladi. Oʻrta sinf oʻquvchilarining kelgusi faoliyatiga boʻlgan motivatsiya mashgʻulot mavzusi materialni koʻrish va soʻrovnomaga oʻtkazishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda oʻquvchilar darsning asosiy maʼnolarini tushunish va

ochib berishga yoʻnaltiriladi. Shu maqsadda oʻquvchilarga videolavha namoyish etiladi va tahlil qilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars gʻoyalari umumlashtirish, mashgʻulotga yakun yasash.